



MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY O'YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI.

Maxkamov Akmaljon Yuldashevich

professor v.b. p.f.f.d.(PhD). Qo'qon universiteti

Email:maxkamov164@mail.ru

Yo'ldashev Samandarbek Akmaljon og'li

Toshkent tibbiyot universiteti talabasi.

Jakbarova Yoqutxon Nurullo qizi

Qo'qon universiteti talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Maktabgacha ta'limda milliy o'yinlardan foydalanish orqali, tarbiyalanuvchilarning o'yinlar orqali ongini shakllantirish maqsadida turli metodlardan foydalanib, ta'limning uzviy davom etishiga asos yaratish orqali 5-6 yoshli bolalarga milliy ta'lim-tarbiya berish, milliy o'yinlar orqali ongini shakllantirishda pedagogik metodlar va o'yinlardan foydalanib bolalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish hususidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: mantiqli o'yinlar, raqamli o'yinlar, boshlang'ich ta'limda milliy qarashlar, milliy tarbiya metodlari, video o'yinlar, inventarizatsiya, an'anaviy o'yin turlari, milliy qadriyatlar, milliy o'yinlar.

KIRISH

Jamiyatning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning bola ruhiyatiga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'ladi. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida bola ruhiyatiga oid muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, tarbiyalanuvchilardagi milliy qarashlar va unga bo'lgan munosabatni shakllantirish haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. Bugungi dunyoda jamiyat va bola o'rtasidagi muammoli munosabatlar nihoyatda dolzarbdir. Inson tomonidan yaratilgan bolaga ta'sir qiluvchi omillar bizning yosh avlodlarga nojo'ya ta'sirlari bo'layotgani hechkinga sir emas. Bolaning psixologik va jismoniy barqarorligi, turg'unligi va uning tabiiy ruhiyatini buzulishiga uning kelajakdagi ruhiy holati qanday bo'lishini oldindan ko'ra bilmaslik sabab bo'ldi.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev¹ - "Har bir oila, har bir bola hayoti maktab bilan bog'langani, bu masala davlatning, jamiyatning eng muhim ishi ekani ta'kidlandi. Men ham tarbiyachi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan".

¹ <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi> (Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokama qilindi)

Bolalarni Maktabgacha ta’lim jarayonlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish to’g’risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori “O‘zbekiston Respublikasida Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”² Qarori va Ta’lim sohasida ko‘plab qarorlar qabul qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, tadqiqotchi mutaxassislarining tobora ko‘proq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmual, insoniy tasir o‘tkazishi, har bir o‘quvchining muntazam va imkon qadar to‘la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta’minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Shunga ko‘ra mavzu yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarni o‘rganib chiqildi.

Mamlakatimizda tarbiyalanuvchi-yoshlarning salomatligini mustahkamlash hamda jismoniy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini takomillashtirish borasida bir qator sohaga doir adabiyotlar nashr etgan, olimlardan T.Usmanxodjeyev, B.Saidova, J.Ishtayev, Z.Abdullayeva, X.Botirov, F.Karimov, A.Ruziyev, T.Koshbaxtiyev, T.I.Iskandarov, V.I.Isxakov, N.O‘rinboyev, R.U.Arziqulov, A.Abdullaev, A.Xasanov, S.Uraimovlarning adabiyotlarida o‘quvchilar sog‘lom turmush tarzi va milliy o‘yinlari xususidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.³

TADQIQOT METOTOLOGIYASI.

O‘zbek milliy o‘yinlari barcha xalq-elatlar kashfiyotlari kabi (musiq, kulolchilik, gilam to‘qish asboblari, ashula va raqs, ertak va h.k.) insoniyat tarixining turli ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarida taraqqiy etgan o‘ziga xos etno va filoontogenetik xususiyatlar asosida “ixtiro” qilingan va shakllanib kelgan. O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach xalq milliy harakatli o‘yinlari millatimiz qadriyatlarini sifatida qayta tiklana boshladi va hozirgi kunda nafaqat xalqimizning eng sevimli mashg‘ulotiga aylandi, balki barcha ta’lim muassasalari o‘quv rejalariga to‘laqonli fan sifatida kiritilgan. Ammo, shuni ham ta’kidlash zarurki, xalq milliy harakatli o‘yinlarining ilmiy-uslubiy asoslari, ularning psixofunksional mohiyati, jismoniy sifatlar va sport mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda qiymati xali deyarli o‘rganilmagan.


Pedagogik kuzatish metodi. Tadqiqotimiz davomida biz ekspert va matematik-statistik metodidan foydalanib, ushbu tadqiqotni Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri DMTT tarbiyalanuvchilari ishtirokida amalga oshirildi. Dastlab DMTTda Milliy o‘yinlar tajribasini ob’ekti qilib olindi. Kuzatuv tadqiqoti 1 oy davomida 5-6 yoshli 50 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida guruhda to‘liq tarbiyanaluvchilar ishtirok etdi. DMTT o‘tkaziladigan Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida Milliy o‘yinlar samaradorligi bir guruhda yani tayyorlov guruhlarda tadqiqot yakunida tekshirish o‘tkazish asosida aniqlanadi. DMTTlarda milliy o‘yinlarni foydalanish usullari mavzusi bo‘yicha quyidagi – pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma hamda amaliy metodlardan foydalandik.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ILOVA

³ T.Usmanxodjeyev. X.Meliyev. M.Nuriddinova. A. Olimov. Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya, “Shodlik nashriyoti” Toshkent-Chirchiq-2019-159-b.


TAHLIL VA NATIJALAR.

Jami guruhlar soni 2 tani va tarbiyalanuvchilar soni esa 50 nafarni (50 nafardan 26 nafari og‘il va 24 nafari qiz bolalar)ni tashkil qildi va ular o‘rtasida statistik taxlil olish maqsadida musoboqa o‘tkazildi. O‘tkazilgan musodaqalardan tadqiqot natijalar shuni ko‘rsatadiki, respondentga milliy tarbiya berish va milliy ongni shakllantirishda turli hil milliy o‘yinlar, ekskursiyalar, ma‘ruzalar va boshqa metodlar kerakli hisoblanadi. Bu borasida o‘rta yoshli respondentlarda **“Arqon tortish”** milliy o‘yini sinovdan o‘tkazildi. Buning natijasida bolalar milliy o‘yinlar orqali jamoa bo‘lib ishlashni o‘rgandilar, bu esa o‘z navbatida ularda atrofdagi barcha bilan kelishib ishlash tuyg‘usi rivojlandi. Bu o‘yinning asosiy maqsadi bolalarni milliy o‘yinlarga bo‘lgan qarashini o‘rganishdan iborat edi. Buning uchun bizga ekologik toza arqon, turli rangdagi matolar kerak bo‘ldi. Bundan tashqari vaqtni o‘lchaydigan taymer(sekundamer) bo‘lishi ham kerak bo‘ladi. Bu ko‘p milliy o‘yin birinchi marta o‘tkazilganda bolalarda ijobiy ta’surot qoldirmadi va natijalar qoniqarli chiqmadi. Takroran milliy o‘yinlardan foydalanish ko‘proq natija berishini ko‘rishimiz mumkin. Milliy o‘yinlar bolalar ruhiyatini sog‘lomlashturish uchun juda katta asos hisoblanadi. Gapimning isboti “Oq terakmi ko‘k terak” o‘yini. Bu o‘yin bolaga hamjihatlikni, jamoada ishlashni va birdamlik o‘rgatadi. “Oq terakmi ko‘k terak” Tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarida tashkil etildi va o‘tkazildi. Tarbiyalanuvchilarni 2 guruhga bo‘lish orqali. O‘quvchilar jami 26ta, ikki guruhga bo‘lganimda 13 tadan o‘quvchiga to‘g‘ri keldi. Tarbiyalanuvchilar bu o‘yinni juda katta qiziqish bilan bajardilar. Tarbiyalanuvchilarda milliy o‘yinlar orqali milliylilikni singdirar ekanmiz, o‘quvchilarda jamoaviy ishlashni va bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishni o‘rganishdi. Bu o‘yinda 1-guruh 75% o‘quvchilar faol qatnashdi, o‘rta faol qatnashganlar 55%, sust qatnashganlar 25%ni tashkil etdilar. 2-guruh faol qatnashganlar 80%, o‘rta qatnashganlar 45%, past qatnashganlar 20% tashkil etdi. Natijalarni diagramma orqali ko‘ramiz.



1-diagramma Oq terakmi ko‘k terak o‘yini natijasi.⁴

Tayyorlov guruh tarbiyalanivchilarida elementar matematika mashgulotining dam olish daqiqalarida qo‘llanilgan Besh tosh milliy o‘yinini 2 marta qo‘lladik. 1-marta qo‘llaganimizda 22ta o‘quvchidan 10 tasi ijobiy 8 tasi yaxshi va 4 tasi qoniqarli natija qilgan edi.2-marta qo‘llaganimizni natijani quyidagi diagramma orqali yaqqol ko‘rishingiz mumkin.



2-diagramma. Besh tosh o‘yini natijalari⁵

Bundan tashqari tarbiyachi respondentlar o‘rtasida boshqa milliy o‘yinlar ham o‘tkazildi. Kuzatish ishlarini boshlashdan avval respondentlarga milliy o‘yinlarni o‘ynashi bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borildi. 1 oy davomida respondentlarni 2 guruhga bo‘lib, o‘g‘il bolalar va qiz bolalarni alohidadan kuzatdim. Kuzatish olib borilganida o‘g‘il bolalarda natija yuqori chiqdi. Chunki o‘g‘il bolalarda bunday o‘yinlarga qiziqish juda yuqori ekan. Ushbu natijalar quyida keltirilgan.


So‘rovnoma natijalari

DMTTlarda milliy o‘yinlar o‘rgatish usullari mavzusida tayyorlov guruh tarbiyalanivchilarida so‘rovnoma o‘tkazdik. Bir necha so‘rovlar olib bordik, eng dolzarb va muhimlarini natijalarini diagrammasini ko‘rishingiz mumkin.

⁵ Muallif ishlanmasi

Milliy o‘yinlar o‘quvchilarning qaysi jihatlarini shakllantirishda yordam beradi

7 ОТВЕТОВ



3-diagramma⁶

MUHOKAMA

Biz tadqiqot ishimizning muhokama qismida yuqoridagi ma’lumotlar, manbalar va asoslarga tayangan holatda shuni aytmoqchimanki, DMTTlarda milliy o‘yinlardan foydalanish orqali yosh avlodga milliy qadriyatlarimizni avloddan-avlodga o‘tishini ta’minlash, tarbiyalanivchilarga mashg‘ulotlarda milliy o‘yinlardan foydalanish usullari yordamida tarbiyalanivchilarda jismoniy rivojlanish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va xalq o‘yinlarining boy an’analari bilan tanishish samarali natija berishini asoslab o‘tdik. G‘.M. Salimov, U. Islomov, F.M. Nasriddinov, A.Sh. Qosimov va boshqa olimlar o‘z tadqiqotlari doirasida ta’lim sohasida xalq harakatli o‘yinlarini qo‘llash hamda buning ustuvorligi xususida mulohaza yuritganlar.

XULOSA.

Tadqiqotdan xulosa tariqasida shuni aytishimiz mukinki, har bir qarashlarni o‘z o‘rni va bolaning jamiyatda yakdil inson bo‘lib yetishishi uchun o‘rni mavjud deyishimiz muhin.

Milliy o‘yinlar borasida shuni aytishim mumkinki milliy harakatli o‘yinlarda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi. Milliy harakatli o‘yinlaridan foydalanishda, ularni qo‘llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo‘ladilar.

Milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishda, ularni qo‘llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo‘ladilar. Bizning fikrimizcha, milliy harakatli o‘yinlarni hamma fazilatlar, qobilyatlar, sifatlarni tarbiyalash bilan bir qatorda aqliy va xarakat ko‘nikma hamda malakalarining shakllanishida asosiy o‘rinlarni egallaydi. Rivojlanishning keying asrlarida bola taraqqiyotini milliy qarashlar bilan boyitish va uni

⁶ Muallif ishlanmasi

shaxs sifatida shakillanishida milliy o‘yin va qadriyatlarni oldinga qo‘yish kerakligini unutmash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoniga 1-ilova.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Makhkamov, Akmal Yuldashevich. "IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH THE USE OF THE CONCEPT OF “BLENDED LEARNING” IN THE ORGANIZATION AND PHYSICAL AKTIVITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.12 (2019): 284-288

2. Makhamov, Akmal Yuldashevich. "THE IMPORTANCE OF THE PHYSICAL TRAINING IN SHAPING HEALTHE LIFESTYLES FOR PROSPECTUVE TEACHERS"." Scientific Bulletin of Namangan State University 1.10 (2019): 368-374.

3. Yuldashevich, M. A., Akmaljon ogli, Y. S., & Akmaljon ogli, Y. S. (2024). Gimnastikaning sog‘lomlashtiruvchi turlari va gimnastikaning sport turlarini ahamiyati. Kokand University Research Base, 308-311.

4. Maxkamov, A. (2023). Aralash talim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni pedagogik usullari. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (10), 547-551.

5. Махкамов, А. Ю. (2023). Олий таълим битирувчилари учун жисмоний тарбия машғулотларида соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантиришнинг амалий-методик имкониятлари. Scientific Impulse, 1(9), 844-851.

6. Aralash talim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning sog‘lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirishni pedagogik usullari A Maxkamov - Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, 2023

IV. Internet manbalar

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbek-xalqining-milliy-harakatli-o-yinlari-ularning-pedagogik-va-fiziologik-xususiyatlari>
3. <file:///C:/Users/User.AD.001/Downloads/milliy-va-harakatli-oyinlar.pdf>